

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI  
BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA MUTAXASSIS  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“GRAFIKA (TURLARI BO‘YICHA)” YO’NALISHI**

**“GRAFIKANI O‘QITISH METODIKASI”  
MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV-USLUBIY MAJMUА**

**Toshkent 2023**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 6 apreli dagi 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** A.Kalanov - professor.

**Taqrizchilar:** D.Kuryazova – san.f.n. dotsent.  
B.Xadjimetov – professor.

*O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagи 2- sonli bayonnoma).*

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	3
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI .....	11
III. NAZARIY MATERIALLAR .....	15
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	15
V. KEYSALAR BANKI .....	21
VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI .....	44
VII. GLOSSARIY .....	46
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	<b>Ошибка! Закладка не определена.</b>

## **I. ISHCHI DASTUR** **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliv ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliv ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalg‘ etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliv ta’lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliv ta’lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san’at hamda

dizayn yo‘nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta’lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta’minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta’mnoti, ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy asoslari, oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo‘llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta’lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo‘llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu holatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llaniladigan oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘kuv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- “Grafika (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

“Grafika (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Amaliy san’atda kompozitsion yechim masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

#### **Tinglovchi:**

- grafika texnikalarida kompozitsiya yaratish;
- illyustratsiya ishslashda chizmatasvirning ahamiyati;
- kitob maketi andazasini yaratish;
- ashyolarni qo‘llashning aniq va tizimli usullarini o‘rgatish;
- rangtasvir bilan eksperimental grafikani o‘zaro bog‘lash;
- kitob elementlarining atamalarini bilish;
- muqova va jild farqlarini ajratish;
- kitob muqovasining kompozitsiyasini yaratish;
- grafikaning turli texnikalarida eksperimentlar qo‘llash;
- akademik chizmatasvirning tasviri san’atdagi ahamiyatini;
- illyustratsiyalar kolorit yechimining inson ruxiyatiga ta’sirini;
- kitobni bezatishda muqova tasvirining asosiy roli;
- kitob bezagini ishslashda ranglarning ahamiyati;
- muqova tasvirida shriftlarni to‘g‘ri tanlash;
- shriftli kompozitsiyalar yaratish;
- ofortning turli texnikalarini bilish;
- litografiya jarayonini bilish;
- rangli litografiya jarayonini ***bilish***;
- linogravyurada ishslashni o‘zlashtirish;
- rangli linogravyurani o‘rganish;
- eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish;
- eksperimental usullarini nazariy va amaliy o‘rganish;
- eksperimental grafika texnikasining imkoniyati;
- kitob grafika kompozitsiya qurilishida ijodiy tafakkur yuritishni;
- xorijiy zamonaviy grafika san’ati usullarini kadrlar tayyorlash milliy tizimiga jalb etish;

- badiiy asarda tomoshabin diqqatini jamlash;
  - grafikada badiiy fikrlash;
  - badiiy adabiyot va kitob bezaklarining uzviy bog‘liqligi;
  - grafika rivojlanishida oqim va yo‘nalishlardan foydalanish;
  - tasviriy san’at ko‘rgazma va galeriyalari asarlarini tahlil qilish ***malakalariga*** ega bo‘lishi zarur.
- grafika usullarining inson ruhiyatiga ta’sirini san’at asarlari orqali ifodalab berish;
- tasviriy san’atda zamonaviy kitob grafika kompozitsiyasi orqali ijodiy tafakkur yurita olish;
  - tasviriy san’at sohasi tashkilotlarini strategik boshqarish;
  - xususiy talab va korporativ kolleksiyalash ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Grafikada kompozitsion yechim masalalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta’limning muhim ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Grafikani o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta’lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagи o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta’limning ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	<b>Modul mavzulari</b>	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Eksperimental grafikada qo‘llaniladigan zamonaviy grafikaning yangi texnikalari. Eksperimental grafikaga oid ilg‘or turdosh xorijiy oliy ta’lim muassasalari amaliyotlarini qo‘llash	4	4		
2.	Pedagog - rassomlar oldidagi eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish usullarini nazariy va amaliy o‘rganish va ko‘nikma hosil qilish vazifasi. An’anaviy bosma grafika texnikasining turlari.	4	2	2	
3.	Ustaxonalarda bosma stanok yordamida turli ashylar yuzasiga tasvirlar tushirish. Eksperimental grafika texnikasida yaratiladigan asarlarni (estamp) bir necha texnikalar	4		4	
4.	An’anaviy va zamonaviy kompozitsiya tuzish asoslari haqidagi nazariy bilim va tajribalarni o‘rganish	4		4	
5.	Eksperimental grafika texnikasining imkoniyati, bosmadan chiqqan nusxaga applikatsiya qo‘llash va ustidan qo‘lda ishlov berish. Bosma tasvirni linoleum, tosh, ruh yuzasiga, plastik oyna, orgalit - fanera, dag‘al va shoyi	4		4	
6.	Eksperimental grafika texnikasining uslubiy vositalari. Rangtasvir bilan eksperimental grafikaning o‘zaro bog‘liqligi. O‘zbekistonda eksperimental grafikaning o‘zaro bog‘liqligi	4		4	
7.	Grafika texnikasining rijojlanashishi	6			6
	<b>Jami:</b>	<b>30</b>	<b>6</b>	<b>18</b>	<b>6</b>

### NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. Eksperimental grafikada qo‘llaniladigan zamonaviy grafikaning yangi texnikalari. Eksperimental grafikaga oid ilg‘or turdosh xorijiy oliy ta’lim muassasalari amaliyotlarini qo‘llash**  
**(4 soat)**

Kompozitsiyaning qonun va qoidalari va badiiy vositalari. Kompozitsiyada fazoviy muhitni his kilish. Shabl va hajm tasvirida obrazni his qilish ruhiyatiga ta'siri KompozitsiY. Kopozitsiya asoslari. Yaxlitlik. Kompozitsiya qurilmasi. Ucho'lchamli tasvir. Ikki o'lchamli tasvir. Kompozitsiyada tekislik. Kompozitsiyada ko'p planlik qurilmasi. Kompozitsiyada shakl va rang uygunligi.

**2-mavzu. Pedagog - rassomlar oldidagi eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish usullarini nazariy va amaliy o'rghanish va ko'nikma hosil qilish vazifasi. An'anaviy bosma grafika texnikasining turlari.**

**(2 soat)**

Grafika texnika turlari. An'anaviy grafika texnikalarining umumiyligi xarakteristikasi. Litografiya, ofort, linogravyura texnikalarining yaratilish tarixi. Grafikaning rivojlanishida texnikalarning ahamiyati. Grafika - bugungi kungacha mavjud bo'lgan tasviriy san'atning eng qadimgi turi. Dastlabki grafik chizmalar ibtidoiy davrda odamzotning g'orlardagi tosh devorlarga, suyaklarga o'yib ishlangan tasvirlarga borib taqaladi. Ibtidoiy odam birinchi chizmalarni yarata turib nafaqat o'z atrofidagi voqealarni tasvirlagan, balki uzoq vaqt mobaynida odamlar orasida o'zaro muloqot vazifasini o'tagan. Shu tarzda odamzot uzoq o'tmishda tasvirlar yordamida o'z fikrini bayon qila turib grafika san'atining poydevorini yaratgan. Yozuvning paydo bo'lishi bilan grafika dekorativ harakterga ega bo'ldi. Qo'lyozma kitoblarda, yorliqlarni bezatilishida, matnni ajratib ko'rsatishda va umuman shriftni yaratilishida katta san'atda qayta rivojlandi.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. rassomlar oldidagi eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish usullarini nazariy va amaliy o'rghanish va ko'nikma hosil qilish vazifasi. An'anaviy bosma grafika texnikasining turlari.**

**(2 soat)**

Grafika asosini chizmatasvir takil qilgani bilan unda rang ham foydalilanildi. Rang grafikada rangtasvirdagiga o'xshab asosiy rolni o'ynamasdan yordamchi vosita o'rnida qo'llaniladi. Grafikada to'la-to'kis tugallangan kompozitsiyalar bilan bir qatorda mustaqil naturadan ishlangan badiiy qiymatga ega tezchizgilar, rangtasvir, haykaltaroshlik, arxitektura asarlariga ishlangan eskizlar ham o'rin egallagan (Italiyada Mikelandjelo, L.Bernini, Fransiyada O.Roden, Gollandiyada Rembrandt, Rossiyada V.I. Bajenovlar chizmalarini bunga misol bo'ldi)

**2-mavzu. Ustaxonalarda bosma stanok yordamida turli ashyolar yuzasiga tasvirlar tushirish. Eksperimental grafika texnikasida yaratiladigan asarlarni (estamp) bir necha texnikalar**

**(4 soat)**

XV asrning birinchi yarmida Yevropada qo‘lyozma kitoblarning eng yuqori gullagan davri bo‘ldi. Shaharliklar orasida kitob o‘qish chanqoqligi shu darajaga yetgan ediki, Parijning o‘zida bir necha ming kitob nusxasini ko‘chiruvchilar bo‘lishiga qaramasdan, kitob umuman o‘quvchilarga yetishmas edi. Yuzlab mutaxassislar kitobni arzon va oddiy usul yo‘li bilan sonini ko‘paytirish ustida bosh qotirishardi. Bu paytda Yevropaliklarga taxtachalar yordamida qo‘lda matn ko‘chirish usuli ma’lum edi, ya’ni ksilografiya texnikasi. Bu usul Xitoyda ixtiro qilingan bo‘lib, qo‘lda bajarilganga qaraganda yetarli darajada mahsuldor emas edi.

### **3-mavzu. An’anaviy va zamonaviy kompozitsiya tuzish asoslari haqidagi nazariy bilim va tajribalarni o‘rganish** **(4 soat)**

Ma’ruzadan so‘ng rejalahtirilgan dastlabki uch mavzu bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ma’ruza mashg‘ulotining mavzusi asosida tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan grafika yo‘nalishi bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma tarzida yoki amaliy grafika ishslash shaklida bajarilishi mumkin. Nazariy ta’lim rejalahtirilmagan amaliy mashg‘ulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzusiga bo‘lgan munosabatini amaliy ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalahtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek amaliy ishslash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak

### **4-mavzu. Eksperimental grafika texnikasining imkoniyati, bosmadan chiqqan nusxaga applikatsiya qo‘llash va ustidan qo‘lda ishlov berish. Bosma tasvirni linoleum, tosh, ruh yuzasiga, plastik oyna, orgalit - fanera, dag‘al va shoyi** **(4 soat)**

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar tomonidan grafika ashyolarida ishslashni o‘rganish asosida qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish sharoitlari to‘g‘risida fikr almashadilar. Grafika texnikalarining turlarini bir biridan farqlashni amalda o‘rganishadi. An’anaviy grafika texnikasida ishlunga kompozitsiyaga zamonaviy usullar bilan qo‘lda qo‘shima ishlov berish. Akvarelda bajarilgan kompozitsiyani monotipiya texnikasi bilan uyg‘unlashtirish.

### **5-mavzu. Eksperimental grafika texnikasining uslubiy vositalari. Rangtasvir bilan eksperimental grafikaning o‘zaro bog‘liqligi. O‘zbekistonda eksperimental grafikaning o‘zaro bog‘liqligi** **(4 soat)**

Grafika texnikalarida ekperimentlar o'tkazish. Bosma tehnikada turli ashyo yuzalarida sinov nusxa ottisklarini olish. Tinglovchilar tomonidan kompozitsiya uchun shakllarning mavzuga mos kelishi va undagi shakl eksperiment bosma nusxalar olish. Bosma nusxa ustidan qo'lda qo'shimcha ishlov berish o'r ganiladi..Mavzuga asosan kompozitsiya uchun qo'shimcha ma'lumotlar to'playdilar hamda mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy mahorat va ko'nikmalarini namoyish etadilar. Yaratilgan kompozitsiyalar bilan ommani tanishtirish.

## **KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Grafika texnikasining rijojlanashishi (6 soat)**

- Qalamtasvir va xomaki chizgilarni bajarishda qo'llaniladigan ashylar turli tumandir. Eng qulaylari esa, quyidagilar: – turli yumshoqlikdagi grafit qalamlar; – rangli qalamlar; – tush (quruq va namli mo'yqalam, shuningdek, pero); – sous (namlangan va quruq); – sangina; – pastel; – bir rangdagi akvarel (sepiya, umbra, vandik, chiroq qurumi); – moybo'yoq – yarim quruq mo'yqalamda (oxra, jigarrangda); – bo'r (tusda bo'yagan qog'ozda yoki kartonda); – ko'mir (yog'och – pista ko'mir)

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.**

### **“Aqliy hujum” metodi**

#### **Aqliy hujum usuli**


**Aqliy hujum** (breynstroming - aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

#### **Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari**

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

#### **“Baliq skeleti”**

Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.



Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1. Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson.	1. Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo‘llay oladigan insonni rassom deymiz.
2. Rassomlar tasviriy chiziqlar vositalardan,	2. Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla	R. Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar

shakllar, vositalarni o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma’naviy estetik tarbiyalovchi	oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kirlitsa bo‘ladi.	uchun amaliy metodik o‘quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3.Rassomlar asarida insonnlarni ma’naviy-ma’rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3.Rassom bo‘lish uchun nima qilish kerak?	O‘ral Tansiqboyev manzaralarini butun o‘zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4.Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	5.Kompyuterda ijodiy asar yaratса bo‘ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6.O‘zbekistonlik rassomlar	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: B.Boymetov,M.Nabihev, O.Egamov, R.Xudayberganov, R.Djalilova

### Интерьерда натюрмортни акс этириш

xonani ichki ko‘rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san’at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko‘rinishlarda fon vazifasini o‘taydi.

Intererda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Interer - ichki me’moriy muxit xolati orqali xonardon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot

holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Intererda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Interer, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu. Eksperimental grafikada qo‘llaniladigan zamonaviy grafikaning yangi texnikalari. Eksperimental grafikaga oid ilg‘or turdosh xorijiy olyi ta’lim muassasalari amaliyotlarini qo‘llash**

**(4 soat)**

O‘zbek mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi namunalariga ishlangan illyustratsiya kompozitsiyalarida shak – shubhasiz turli inson qomati va portreti obrazlari nihoyatda ko‘p sonda uchraydi.

Ijobiy obrazlarda keksa yoshdagi olim yoki oddiy kasb egasi bo‘lgan inson, o‘ktam yigit, suluv qiz va h.k.tasvirlangan bo‘lishi mumkin. O‘z – o‘zidan ma’lumki har bir adabiyot asarida voqealar rivojida ijobiy obrazlar bilan yonma –yon salbiy obrazlar ham tasvirlanadi. Agar yaxshilab o‘ylab qaralsa, hikoyani tasvirlashning dramatik yo‘li mavjud bo‘ladi. Bizning hayolimizga keladigan birinchi narsa, ehtimol boshqalar bu haqida nima deb o‘ylashlaridir. Boshqacha qilib aytganda, ochiq-oydin ko‘rinib turgan narsani darhol qabul qilmaslik kerak. Yosh rassom oldidagi vazifa ijobiy va salbiy obrazlarning yuz – mimikasini aniq topish, ularning tus, rang, koloritda farqlash turadi. Yonma – yon turgan ikki obrazning bir – biriga munosabati, ulardan asosiysiga rangda urg‘u berish, ajratib ko‘rsatish va shu bir vaqtda qahramonlarni o‘zaro bog‘lash. Yoki ikki-uch kishidan iborat kompozitsiya ishtirokchilarining portret va qomatlarini ishlashda har bir shaxsning xarakterli qirralarini aniqlash, har bir qomatning masshtab va perspektivada o‘ziga xos taraflarini, birinchisi-ikkinchisga to‘g‘ri taqqoslash talab etiladi. Odamlar o‘rtasidagi syujetning o‘zaro aloqasi, umumiylar guruh xarakterini ochib berishga harakat qiladi.

Kompozitsiyadagi qahramonlar obrazini tinglovchi vazifaning 2-toshirig‘ini bajarish jarayonidayoq ularning qomati, harakatlarini hayotda kuzatib bir qancha materiallarni yig‘ib kelgan bo‘lishi kerak. Albatta, bunda u qahramonlar yoshiga, kasbiga asoslanadi.

Shuni yodda tutish kerakki, qoidaga ko‘ra libos ostidagi tana shakliga mutanosib bo‘lib, katta shakllarning yo‘nalishi va o‘lchamini ifodalab, kiyim burmalari esa shakllar sinishi, bo‘g‘inlarning bukilishini (tirsak, tizza va b.h.k.) hosil qiladi.

Shunday qilib, badiiy obrazni yaratishning murakkab, qiyin jarayoni, tugallangan kompozitsiyani yaratish qoidasiga ko‘ra, naturani ko‘p kuzatib o‘rganib chizish, xotira va tasavvur orqali erishiladi.

## **2-mavzu. Pedagog - rassomlar oldidagi eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish usullarini nazariy va amaliy o‘rganish va ko‘nikma hosil qilish vazifasi. An’anaviy bosma grafika texnikasining turlari.**

**(2 soat)**

Illyustratsiyalar chiziladigan badiiy adabiyotni o‘rganish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi va shuning bilan bir vaqtida o‘ziga xos tarzda murakkabdir.

Bunday adabiyotlarni mustaqil ravishda o‘qib, o‘rganib uning turli xossa va o‘ziga xos xususiyatlarini anglab olish talab etiladi. So‘ngra ifodalarning o‘zgacha ko‘rinishida bo‘lishi va boshqa tasviriy tilda yaratish – bu oson emas. Adabiyotni o‘qib - o‘rganishda shuningdek, nashr uchun kirish maqolalardagi badiiy – adabiyot asar tahlili, hamda adabiy – tanqidiy fikrlarning ham yordami katta.

Ba’zi turdagи illyustratsiyalarda rasm bilan tasvirlangan hikoya to‘liq bo‘lmaydi vau o‘quvchida matndan javob topish qiziqishini uyg‘otadi. Bu turdagи illyustratsiyalar “qani topchi” qabilida nomlanishi mumkin. Agar hikoya butunlay ochib beriladigan bo‘lsa undan ko‘zlanayotgan maqsadni barbod qilishi va matn yoki ssenariy shunchaki chetlab o‘tilishi mumkin. Afsuski, bunday hol tez-tez sodir bo‘lib turadi va bunda ayb rasmning mazmunida bo‘ladi<sup>1</sup>.

Kitob rassomi va badiiy muharrir, adabiyot asarini o‘rgana turib, qahramonlar xarakteri va taqdiri rivojini kuzatadi, syujet va fabula harakati, jarayonining sekinlashishi va tezlashishi, kulminatsion lahzalar, diqqatlarini manzara va interyer bayoniga, muallif va qahramonlar tili xususiyatlariga qaratadi. Illyustratsiya kompozitsion qurilishiga kirib borishadi, uni muallif arxitektonikasi bilan taqqoslaydi. Obrazlarni yaratilishida yozuvchi qanday vositalardan foydalangani tushunishga intilish, asarning qanday qirralari aniqlandi, uning estetik ta’siri, asar

---

<sup>1</sup> © 2008 by the American Printing House for the Blind, Inc.

g‘oyasi obrazining qurilishida – uning ahamiyati, ta’siri va barchasiga e’tiborini qaratishi shart.

Badiiy adabiyot asarining murakkab estetik – g‘oyaviy tahlili, nashrni illyustratsiyalash va tashqi bezaklarda ahamiyati juda katta.

Asarni har bir qayta mutolaa qilgan sari kompozitsiya g‘oyasi chuqurlasha boraveradi.

Tayyorlov bosqichi bo‘lajak bezaklar asosi yaratilish jarayonida, illyutatsiyalarda Bularsiz asos bo‘lmay qoladi, har qanday usullar qo‘llanilishiga qaramasdan hech qanday illyustratsiya tizimi imkoniyati yo‘q. Har qanday illyustratsiyalar turkumi, agar ular kompozitsion to‘g‘ri qurilgan bo‘lsa cheksiz turfa qirrali ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Roman yoki qissa to‘plamlari bo‘ladimi, siyosiy pamflet yoki lirik she’riyatni rassom uchun buning hech qanday ahamiyati bo‘lmaydi. Shuni yodda tutish kerakki muallif tomonidan oldinga surilgan har qanday g‘oya ham rassom ishining asosi bo‘lavermaydi.

Adabiyot obrazlarini tasviriyl shaklga aylantirishda bezakchi rassom yana bir qator omillarni hisobga olishi kerak, bu rassom faoliyatiga ta’sir etadi. Mazkur maqsad va vazifalari ana shunday aniqlanadi, uning asosiy mo‘ljali va qaysi kitobxonlar kategoriyasiga kirishiga qaratilgan. Masalan, kitob mashhur nashr bo‘lib, keng kitobxonlar qatlamiga yoki ilmiy, tor doiradagi mutaxassislaraga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. O‘qish yoki qayta o‘qishu yoki bo‘lmasa tomosha qilish uchun chop etiladimi, ommaviy, ma’naviy – ma’rifiy yoki axborot bo‘ladimi, bolalar yoki o‘smir yoshdagagi yoki katta yoshdagilarga mo‘ljallangan bo‘ladimi?

Shunga mos keladigan shartlar bilan rassom nashrni bajarish imkoniyati usuli, xarakter, texnologiyalarini hisobga olgan holda illyustratsiyalar ustida ish boshlaydi. Rassom tomonidan adabiyot asarini mutolaa qilish jarayoni katta rol o‘ynaydi, unda yana uning shaxsiy falsafiy qarashlari, badiiy nuqtai nazari va chizish usuli, har qanday vaziyatda illyustratsiyalarda o‘zining ijodiy fikrlarini bayon etadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarimizga asosan bir adabiyot asariga, mutlaqo turfa xil illyustratsiyalar yaratish mumkin.

Adabiyot asari mazmuni qanchalik chuqur keng qamrovli bo‘lsa, shunchalik kitob bezakchilari bu asarga murojoat etishadi. Fikrimizning tasdig‘i uchun A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan bo‘lgan bu yozuvchilar asarlariga ishlangan illyustratsiyalarni o‘rgana turib, biz shunga amin bo‘lamizki, birinchidan, rassom o‘sha davr ko‘rinishlari qay tarzda aks etirilganini, uning shaxsiy estetik qiziqishlari va muallif fikri, hamda sezgilarning singdirilishiga ijobiy erishgan. Ikkinchidan, bir qator asosiy, tarixiy yig‘ilgan illyustratsiyalar ko‘rinishlari.

## TUSHUNCHALARINI ANIQLASH

Maqsadi:

- tinglovchilarni gapdagi har bir xorijiy tildagi so‘zni tushuna olishga o‘rgatish;
- tinglovchilarning gapdagi har bir so‘zga e’tiborli munosabatda bo‘lish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;
- o‘quv topshirig‘ini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

O‘qituvchi izohni **tushunish** - bu tinglovchilarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur eta olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki so‘zni tushunishning birinchi darajasi.

So‘zni to‘liq tushunish qachonki, tinglovchilar narsa yoki hodisaning tuzilishiga oid tarkibiy qismlar (nimalardan tashkil topgan) va uning funksional o‘ziga xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

Mashg‘ulot quydagi tarzda o‘tkaziladi:

1. Barcha tinglovchilar kichik guruhlarga bo‘linishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi gaplardagi notanish so‘zlarni topish va izohli lug‘atlar, o‘qituvchining yordamida ularning ma’nosini izohlab berishni so‘raydi.

3. Guruxlarda matn ustida ishlash boshlanadi. Tinglovchilar birgalikda notanish, tushunarsiz so‘zlarni topishadi va ularning ma’nosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib bo‘linganidan so‘ng, "kichik guruhlarga hujum" boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qur'a tashlash yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbatil bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh a'zosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan so'ng uning to'g'riliqi ekspertralar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 balldan 5 ballgacha bo'lishi mumkin.

5. Yakunlarini chiqarish. O'qituvchi ko'p ball yig'gan guruhni e'lon qilishi mumkin. Mazmuni noto'g'ri tushunilgan so'zlarga izoh beriladi.

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI**

**1-mavzu. Pedagog - rassomlar oldidagi eksperimental grafika texnikasida asarlar yaratish usullarini nazariy va amaliy o'r ganish va ko'nikma hosil qilish vazifasi. An'anaviy bosma grafika texnikasining turlari.**

**(2 soat)**

Maqsadi:

- tinglovchilarni materialning tuzilishi, asosiy fikrlarni belgilay olish, esda saqlab qolish mumkin bo'lgan shaklda ularni tasavvur eta olishga o'rgatish;
- nutq madaniyatini rivojlantirish.

1. Birinchi bosqichda pedagog asosiy fikrlarni tasavvur etishning turli shakllari haqida hikoya qilib beradi.

Asosiy fikrlarni tasavvur etishning birinchi turi oddiy - bu asosiy fikrlarni so'z yoki qisqa gaplar tarzida tasavvur etishdir. Mazkur so'z yoki gaplar ustunlar tarzida nomer qo'yish orqali yoziladi.

Asosiy fikrlarni tasavvur qilishning ikkinchi shaklida o'zak belgilab olinadi va ana shu o'zak atrofida asosiy fikrlar jamlanadi.

Asosiy fikrlarni shakllantirishning uchinchi shakli - bu ularni qisqartirish yoki shartli belgilar bilan almashtirishdir.

2. Ikkinci bosqichda tinglovchilar kichik guruhlarga birlashadilar. Har bir kichik guruh o'ziga berilgan matnni oladi va uni o'qiydi. Matnlar hammada har xil.

3. Shundan so'ng guruhda har bir tinglovchi mustaqil ravishda mazkur matnga doir tayanch konspektini to'zishadi.

4. Navbatdagi bosqichda tinglovchilar juftliklarda o'zlarining tayanch konspektlari haqida fikr almashishadi. Mazkur bosqichda o'zining tayanch konspektini o'zgartirish imkoniyati mavjud.

5. Navbatdagi bosqichda tayanch konspekt guruhiy muhokama etiladi. Guruh o'zaro kelishgan holda qandaydir yaratilgan tayanch konspektini qabul qiladi. Mazkur bosqichda guruh butun jamoaning oldida "ovoz chiqarib" aytib beruvchi tinglovchini aniqlab olishi kerak.

6. Mazkur bosqichda guruhning bir a'zosi aniqlangan tayanch konspekt bo'yicha chiqish qiladi va o'qilgan matnning mazmunini bayon etadi. Barcha tinglovchilar eshitishlari kerak. Mazkur davrda meyorlarning bajarilishini ta'minlaydigan texnik ekspertning majburiyati namoyon bo'ladi.

7. Birinchi guruh a'zosi chiqishini tugatgandan so'ng boshqa guruh savol berishi mumkin. Savollarga javob beriladi. Mazkur turdag'i ish baholanishi mumkin (ballar jadvalda qo'yiladi). Savollarning navbat bilan berilishini texnik ekspert yo'lga qo'yadi.

8. Sakkizinchi bosqichda boshqa guruhning vakili agar asosi mavjud bo'lsa, qilingan chiqishni to'ldiradi.

9. To'qqizinchi bosqichda boshqa guruh vakili chiqish, savollarga javoblar bo'yicha noroziligini ifoda etadi.

Ana shu yerda birinchi matn bilan ishlash yakunlanadi. Pedagog yoki ilmiy ekspert yakunlarni chiqaradi.

Keyingi bosqichda boshqa guruh vakili o'zining tayanch konspektini namoyish etadi. Mazkur harakat hamma chiqishlar tugaguncha davom etadi.

Inssenirovka yakunlarni chiqarish bilan tugallanadi. Har bir guruh to'plagan ballarni hisoblash va jami ballar ustuniga yozib qo'yilishi kerak. Ana shu asosdan kelib chiqib, o'rnlarni ham belgilash mumkin.

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar turli nutq normalarini, notiqlik san'ati masalalarini o'rghanadilar.

1. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni.
2. Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni.
3. Xalq og'zaki ijodida nutq odobi masalalari.
4. Kaykovus suxandonlik xususida.
5. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari.
6. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari.
7. Badiiy asarda nutq madaniyati masalalari: Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati (nutqning kommunikativ sifatlari).
8. Nutq madaniyatini egallah yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nigmalarini ma'ruza qilish va savol-javoblar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida tinglovchilar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar

va tezislarni chop etish orqali tinglovchilar bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

## **2-mavzu. Ustaxonalarda bosma stanok yordamida turli ashyolar yuzasiga tasvirlar tushirish. Eksprimental grafika texnikasida yaratiladigan asarlarni (estamp) bir necha texnikalar**

### **(4 soat)**

Yetuk mutaxassis bo‘lishni o‘z oldiga katta maqsad qilib qo‘yan har bir yosh rassom uchun biz har doim qalam va albomlarini yonlarida birga olib yurishlari kerakligini ta’kidlab o‘tamiz.

To‘y, bayram, tantana marosimlari, sport tadbirlari yoki oddiy shahar sayri, mehnat jarayonini bevosita kuzatib, ular ichiga kirib, singib boriladi va bir zum bo‘lsada kerakli, qiziqarli obrazlarning tezchizgilarini bajarish juda muhim. Ishonch bilan ta’kidlash lozimki, juda ko‘p sonli tezchizgilar orasida albatta, bir nechta ajoyib, mohirona yaratilgan obraz va harakatlar ifodasi aniq bajarilgan bo‘ladi. Qolganlari, ya’ni yetarli darajada bo‘shtorish ishlangan qoralamalarni tashlab yubormaslik va bundan hech qachon tushkunlikka va noqulay holatga tushmaslik lozim.

Tanlangan mavzuga bag‘ishlangan yuzlab qoralamalar orasida kompozitsiya uchun aynan topilgan, xarakterli obrazlar – inson qomati, holat harakati, gavda nisbatlari aniq ifodalanganlari o‘qituvchi maslahati bilan ajratib olinadi. Chunki ular kompozitsiya xomaki nusxalarini bajarishda juda asqotadi. Qahramonlar yuz ifodalarining xomaki chizgilariga iloji boricha ko‘proq ishlov beriladi (ya’ni yorug‘- soyalar tushishi).

Kompozitsiya tasvirida inson qomatiga qaysi tomondan yorug‘ tushadi, ulardan tushayotgan soya qanday yo‘nalishni tashkil etishi, bular oldindan belgilanib, reja qilinadi.

Kompozitsiya qahramonlari liboslari ustida ham jiddiy ishlashga to‘g‘ri keladi. Ularning ust-bosh, oyoq kiyimlari mavzuga mos bo‘lishi zarur. Liboslarning bukilgan qismlari aniq, qomatning anatomik tuzilishini his qilgan holda, ko‘rsatilishi muhim. Qahramonlarning kiyimidagi taqinchoq, bezak yoki naqshlar bo‘ladimi, ushbu detallarning barchasi ustida ishslash talab etiladi.

Agar tanlangan kompozitsiya mavzusi tarix bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday hollarda etnografik adabiyotlar, muzey fotolavhalari, arxiv hujjatli filmlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Xullas kompozitsiya mavzusiga har tomonlama mos keladigan ishonarli obrazlarni talqin qilishda, tinglovchidan topshiriqlarni shijoat va intizom bilan bajarish talab qilinadi.

## **2-mavzu. An'anaviy va zamonaviy kompozitsiya tuzish asoslari haqidagi nazariy bilim va tajribalarni o‘rganish** **(4 soat)**

Albatta, kompozitsiya asl nusxasini bajarishda mukammal, har tomonlama to‘la-to‘kis ishlangan xomaki nusxaga tayanish kerak.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, kompozitsiya asl nusxasi ustida ashyoda ishlash jarayonida yosh rassom o‘zining iqtidori imkoniyatidan kelib chiqqan holda, erkin ijod qilib ishlash, xomaki nusxani aynan ko‘chirishga intilmasdan, balki qo‘llar harakatiga bemalol, erk berib chizishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, toshda ishlayotganda qo‘rmasdan xuddi qog‘ozga chizayotgandek, to‘q tuslarni iloji boricha birdaniga, qalam kuchi bosimida tasvirlashga harakat qilishi lozim. Iloji boricha xomaki nusxaga kamroq nigoh tashlab, ishni davom ettirishi zarur. Chunki qog‘oz va tosh xususiyatlari turlicha bo‘lib, qog‘ozdagi noto‘g‘ri chiziq, shtrix yoki tusni o‘zgartirish mumkin, toshda ham tuzatishning imkonи bor, biroq bunga qo‘l urmagan ma’qul, aks holda litografiyadagi jonli shtrixlar, effektlar yo‘qoladi.

